



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети


**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Ganjina Azimova</b> NOYOB KITOBLAR FONDI O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA.....	5
<b>2. Елена Гордеева</b> СТРОИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ РАННИХ ЗЕМЛЕДЕЛЬЦЕВ ДРЕВНЕГО ШАША.....	11
<b>3. Mohinur Isaqova</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT QURISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY ANAMIYATI.....	16
<b>4. Pyos Oqbo‘tayev</b> KOREYS XALQINING TO‘LJANJI MAROSIMI VA UNING TRANSFORMATSIYASI.....	22
<b>5. Жамшид Пиримкулов</b> ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ.....	29
<b>6. Xumora Pozilova</b> TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL IDISHLARLARNING TARIXIY ILDIZLARI, XRONOLOGIYASI, TARQALISH GEOGRAFIYASI VA O‘RGANILISHI.....	39
<b>7. Murod Raxmatov</b> “YANGI TURKISTON” JURNALI – MA’RIFAT VA KURASH MINBARI.....	46
<b>8. Boburjon Teshaboyev</b> FUQARO MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	51
<b>9. Baxtiyor Xalmuratov</b> “YOMG‘IR” RAMZI BILAN BOG‘LIQ XALQ QARASHLARI.....	58
<b>10. Хулкар Холикулова</b> ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКISTONДА “ЛИДЕР АЁЛ” ВА “ЗАМОНАВИЙ АЁЛ” ТУШУНЧАЛАРИ.....	66
<b>11. Шахноза Холикулова</b> ЎЗБЕКISTONДА 1930-1940 ЙИЛЛАРДА КИМЁВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ САНОАТЛАШУВИ ТАРИХИ.....	71
<b>12. Рашид Холмуродов</b> ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ.....	77



**Baxtiyor Rejavalievich Xalmuratov,**  
Namangan davlat universiteti dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## “YOMG‘IR” RAMZI BILAN BOG‘LIQ XALQ QARASHLARI

**For citation:** Bakhtiyor R. Khalmuratov. FOLK VIEWS RELATED TO THE SYMBOL OF “RAIN”. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17253268>

### ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek xalqining “Yomg'ir” kulti bilan bog'liq qarashlar tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilingan. Unda ushbu timsol bilan bog'liq qarashlar diniy, tarixiy, falsafiy va etnografik materiallar o'zbek xalqi misolida yoritib berilgan. Chunki, hozirgi kunda sodir bo'layotgan ekologik inqirozlar va suv tanqisligi sharoitida qadimiy an'analarning tobora unutilib borayotganligini anglatadi. Mana shu jarayonda yomg'ir ramzi bilan bog'liq xalq qarashlarini tahlil qilish va unga doir etnografik xulosalar berish orqali yoshlarni tabiat, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan suvga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanishiga zamin yaratadi.

**Kalit so'z va iboralar:** Tabiat, tabiat kulti, yomg'ir, suv, yer, Osmon, urf-odatlar, marosimlar, o'zbek xalqi, Farg'ona vodiysi, sug'orma dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, do'l, sel, suv toshqinlari, qurg'oqchilik.

---

**Бахтиёр Режавалиевич Халмуратов,**  
доцент Наманганского государственного университета,  
доктор философии по историческим наукам (PhD)

## НАРОДНЫЕ ВОЗЗРЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С СИМВОЛИКОЙ «ДОЖДЯ»

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются представления узбекского народа о культуре «Дождя» в историко-этнографическом аспекте. Приводятся религиозные, историко-философские и этнографические материалы, посвященные представлениям об этом символе на примере узбекского народа. Потому что это означает, что в условиях нынешнего экологического кризиса и нехватки воды древние традиции все больше забываются. В ходе этого процесса, анализируя народные поверья, связанные с символом дождя, и делая этнографические выводы о нем, молодежь сможет сформировать позитивное отношение к природе и воде, которая является ее важной составляющей.

**Ключевые слова:** Природа, культ природы, дождь, вода, Земля, Небо, обычаи, обряды, узбекский народ, Ферганская долина, орошаемое земледелие, богарное земледелие, град, оползни, наводнения, засухи.

**Bakhtiyor R. Khalmuratov,**  
Namangan State University,  
Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in History

## FOLK VIEWS RELATED TO THE SYMBOL OF “RAIN”

### ABSTRACT

In the article the views of the Uzbek people related to the cult of “Rain” are analyzed from a historical and ethnographic aspect. The views associated with this symbol, religious, historical, philosophical and ethnographic materials are presented in it on the example of the Uzbek people. Because, in the conditions of ecological crises and water shortages of today, ancient traditions are increasingly being forgotten. In this process, by analyzing folk beliefs related to the symbol of rain and providing ethnographic conclusions about it, young people will be able to form a positive attitude towards nature and water, which is its important component.

**Index terms:** Nature, cult of nature, rain, water, Earth, Sky, customs, rituals, Uzbek people, Fergana Valley, irrigated agriculture, dry land agriculture, hail, mudflow, floods, drought.

### **Dolzarbligi:**

Inson hayotining tabiat bilan uzviy bog‘liqligi bir necha asrlar oldin o‘z isbotini topgan haqiqatdir. Tabiatdagi har bir hodisa, voqeya va jarayonlar inson hayotiga bevosita ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Birgina meteobog‘liqlik bo‘yicha ham bir necha misollar keltirish mumkin. Tabiatning noyob hodisalaridan biri bo‘lgan yomg‘ir ham qaysidir ma’noda insonning kundalik hayotida aks etadi va o‘z o‘rnida bir qator qulaylik hamda noqulayliklarni ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun insoniyat ongida ushbu tabiat hodisasiga nisbatan ikki xil, dualistik qarash shakllangan.

### **Metodlar:**

Mazkur maqolada etnografiya fanida qabul qilingan kuzatuv, suhbat, intervyu, tarixiylik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda o‘zbek xalqining etnoekologik madaniyatida muhim o‘rin tutgan qarashlar va marosimlar tahlil qilingan.

### **Tadqiqot natijalari:**

“QOMUS-INFO” saytida yozilishicha, yomg‘ir – bulutlardan diametri 0,5 mm dan 6–7 mm gacha bo‘lgan suv tomchilari holida yog‘adigan yog‘in turi bo‘lib, u bulutli yomg‘ir hamda jala yomg‘irlarga bo‘linadi. O‘rta Osiyoning tekislik va tog‘ oldi hududlarida yomg‘ir yil davomida kuzatiladi; yomg‘irli kunlar soni qorli kunlar soniga karaganda 2–3 marta ortiq. Yomg‘ir mart-aprel oylarida eng ko‘p, iyul-avgustda esa eng kam yog‘adi. Mintaqada yomg‘irli kunlar soni o‘rta hisobda bir yilda 30–40 kuni tashkil qiladi. Joyning balandlik ortib borishi bilan (toqqa yaqinlashgan sari) yomg‘irli kunlar soni 50–60 kunga yetadi. Cho‘l hududlari, Farg‘ona vodiysining g‘arbiy va markaziy qismlarida esa yillik yomg‘ir miqdori anchagina kamdir [1].

Mutaxassislarning ma’lumot berishicha, aprel va may oylarida mo‘tadil yog‘ib turadigan bulutli yomg‘irlar tuproqda namlik zaxirasining ko‘payishiga yordam beradi hamda ekinlarning yaxshi ko‘karishiga qulay sharoit yaratadi. O‘z navbatida, bu paytda yoqqan yomg‘ir unib chiqqan ayrim ekinlar, masalan, g‘o‘zada ildiz chirishi va gommoz kabi kasalliklarining avj olishiga ham sabab bo‘ladi [2].

Yomg‘ir sayyoramiz iqlimi va ob-havosining ajralmas ko‘rinishidir. Yomg‘ir yog‘ar ekan, bu borada hech narsa qila olmaymiz, uning tugashini faqat sabr bilan kutish mumkin, xolos. Oxirgi yillarda yurtimizda bahor fasli chinakam yomg‘irlar mavsumi bo‘lmoqda, bunday holat anchadan beri kuzatilmagan edi. Tinimsiz yomg‘ir yog‘ishi natijasida ayrim hududlarda sel kelishi va suv toshishi holatlari ham uchramoqda.

Ma’lumki, yomg‘ir bulutlari odatda, yerdan 1000 – 1200 metr balandlikda hosil bo‘ladi, shuning uchun gidrometeorologiya markazining yomg‘ir haqidagi barcha iboralari o‘ziga xos ma’noga ega. Masalan, “qisqa muddatli yomg‘ir” iborasi uning davomiyligi 3 soatdan oshmasligi, “Yomg‘ir yog‘ishi kutilmoqda” esa kamida yarim kun davomida yomg‘irning davomiyligini

anglatadi. Shuning uchun Farg‘ona vodiysi aholisi orasida “Tez yoqqandan emas, sekin yoqqan yomg‘irdan qo‘rq” degan xalqona qarash keng tarqalganligi [3] bejizga emas.

Ma'lumki, yomg‘ir ramzi bilan bog‘liq qarashlar qadim zamonlarga borib taqaladi. Masalan, antik davrga oid hind afsonalarida yozilishicha, qurg‘oqchilik keltirib chiqargan iblis, fazoviy ajdaho Vritraning halok bo‘lishi natijasida uning ko‘z-yoshlari yomg‘irga aylangan ekan. Falsafiy ta'limotlarga ko‘ra, yomg‘ir – yer va Osmon uchrashuvi ramzi hamdir. Shuning uchun dunyoning ba'zi mintaqalarida yomg‘ir suvi befarzanlikdan xalos qiladi, degan mifologik qarashlar va rivoyatlar keng tarqalgan [4]. Arxitekturada esa yomg‘ir kulti belgilarini tosh haykallar, gilam naqshlari va devor rasmlarida ham uchratish mumkin. Bulut, yomg‘ir tomchilari, egri chiziqlar va to‘lqinlar yomg‘ir timsollari sifatida ishlatilgan [5].

Yomg‘ir kulti bilan bog‘liq qarashlar qadimiy diniy e‘tiqodlardan biri bo‘lgan shomonlikka ham uchraydi. Masalan, samo xudosi yog‘diradigan yomg‘ir “urak” deb atalib, shomonlar uni qoramolning birinchi suti, deb bilganlar [6]. Shomonlik an‘analarda esa yomg‘ir ramzlari baraban naqshlari yoki marosim kiyimlarida aks ettirilgan [7]. Ko‘plab qabilaviy jamiyatlarda yomg‘ir chaqirish vazifasi shomon yoki ruhoniylarga yuklangan. Shomon marosim paytida maxsus kiyim kiygan, ushbu kiyim odatda, qush patlari, suv ramzlari va metall jiringlovchi buyumlar bilan bezatilgan. Metall ovozi chaqmoq va momaqaldiroq ovozini ramziy ifodalagan. Marosim odatda, uch qismdan iborat bo‘lgan:

1. Osmon ruhlari bilan aloqa – shomon baraban chalib, trans holatiga kirgan.
2. Suv ruhlarini uyg‘otish – suv sepish, suvga qarab qo‘shiq aytish yoki suv hayvonlarining raqsini ijro etish.
3. Qurbonlik – qurg‘oqchilik kuchli bo‘lsa, chorva hayvonlari yoki qushlar qurbon qilingan [8].

Barcha jahon dinlarida bo‘lgani kabi Islomda ham yomg‘irga nisbatan ijobiy munosabat shakllanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, Qur‘oni Karimning suralaridan birida: “Va yerni qaqragan holda ko‘rarsan. Qachonki, Biz unga suv tushirsak, u seskanadi va ko‘pchiydi. Hamda har xil go‘zal juftlarni o‘stiradir”, deyiladi [9]. Shundan ko‘rinib turibdiki, yerga yomg‘ir tushsa, u harakatga kelib, hajmi ziyoda bo‘lar ekan, bu ilmiy haqiqatdir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yerda ba'zi bo‘shliq joylar bo‘lib, unda havo mavjud. yerga suv tushganda esa o‘sha joylardan havo chiqib, o‘rnini suv egallaydi. Ana shu egallash jarayonida suv yerni harakatga keltirar ekan.

Tuproqqa suv qo‘shilsa, uning kengayishi, namligi kamayishi va torayishi kimyogarlar tomonidan aniqlangan. Shunday qilib, yerga suv tushsa, ya‘ni yomg‘ir yog‘sa, u harakatga kelib, hajmi kattalashishi ilmiy jihatdan ham isbotlangan [10]. Bu haqda Qur‘on i Karimda: “U sizlarga yerni to‘shab, osmonni bino qilgan va osmondan suv tushirib, u bilan sizlarga mevalarni rizq qilib chiqargan zotdir. Bilib turib, Allohga boshqalarni tenglashtirmang” [11]. Haj’ surasi 5- oyatida esa “..yerni qo‘riq holida ko‘rasiz. Biz qachonki, uning ustidan yomg‘ir yog‘dirsak, u harakatga kelib ko‘pchir turli go‘zal juftlar (ikki xil giyohlar)ni undirur”, deyiladi [12]. Ko‘rinib turibdiki, yerga suv-yomg‘ir tushsa, u harakatga kelib, undan o‘t-o‘lanlar asta-sekin nish urib chiqadi, yam-yashil maysalarga burkanadi. Dov-daraxtlarning hayoti, jamiyatning yashashi, insonning tirikligi – bularning bari buyuk ilohiy ne‘mat – suvga bevosita bog‘liqdir.

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam osmon ufqida bulutni ko‘rsalar, ishni tark qilar edilar. Agar namoz o‘qiyotgan bo‘lsalar ham. So‘ngra “Allohim! Men sendan uning sharridan panoh so‘rayman”, der edilar. Agar yomg‘ir yog‘sa: “Allohim! Foydali va nafli qilgin», der edilar” [13]. Har bir mo‘min-musulmon yog‘ingarchilik paytida Allohdan uni manfaatini va foydasini so‘rab, yomonligidan esa panoh so‘rab duo qilishi shart. Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Ustimizdan yomg‘ir yog‘di. Nabiy sollallohu alayhi vasallam bilan birga edik. U Zot chiqib, kiyimlarini shimardilar. U Zotga yomg‘ir tegdi. Biz so‘ragan edik, U Zot: “U Robbisi huzuridan hozirgina tushdi”, dedilar [14]. Demak, yomg‘irning har bir tomchisi va qorning har bir parchasi Alloh huzuridan ekan. Ulamolarning aytishlaricha, qor, yomg‘ir yog‘ayotganda osmon eshiklari ochilarkan. Va shu vaqtdagi duolar ijobat bo‘larkan [15]. Shuning uchun Islom dinida iste‘mol qilishga yaroqli va tozalik uchun ishlatiladigan suvlarni Alloh taolo osmondan yomg‘ir holida tushiradi, bu bandalarga berilgan ulug‘ ne‘matdir.

Mazkur timsol bilan bog'liq qarashlar o'zbek xalqi an'anaviy turar-joy qurilishi jarayonida ham keng tarqalgan. Vodiylik ustalar tog'li hududlarda tosh uylarning oldini asosan soy, ya'ni qiyalik tomon qaratib qurganlar, chunki birinchidan, bunga relef imkon bermagan, ikkinchidan, toqqa qaratilgan taqdirda uy oldi, ya'ni hovli qor bilan to'lib, uyga yomg'ir suvlari kirishi ham mumkin bo'lgan [16]. Vodiyning tekislik mintaqalaridagi uy-joylarda esa tomning qalinligi 30–50 sm.gacha bo'lgan, yassi tomlar ustida yomg'ir to'planib qolmasligi uchun biroz qiyaroq qurilgan. Shunday bo'lsa-da, yillik yomg'ir va qorlar hisobiga tom har yili somonli loy bilan suvab turilgan [17].

Yomg'ir kulti bilan bog'liq tasavvurlar o'zbek xalqi xo'jalik tarmoqlaridan biri bo'lgan hunarmandchilikda ham o'z aksini topgan. Jumladan, tadqiqotchi M. Sh. Usmonovning yozishicha, qo'ng'iroq urug'iga mansub momolar har bir naqshni ramziy ma'noda orzu-o'ylarini ifodalagan holda yaratganlar. Yil qurg'oqchilik kelganda, yomg'ir yog'ishini kutib, uning tomchilarini ifoda etgan naqshlar solganlar [18].

Tog' etaklarida yetarli miqdordagi yog'ingarchilikni bo'lishi yomg'ir bilan oziqlanadigan yerlarda bahorgi bug'doy, arpa, tariq va makkajo'xori kabi ekinlarni yetishtirishga imkon bergan. Yomg'ir bilan oziqlanadigan yerlardagi hosil miqdori ob-havoning beqarorligi tufayli ular chorvadorlar asosan, qipchoqlar, yuz, qurama va turklarga mansub edi. Sug'oriladigan yerlarda barqaror hosil olishga odatlangan o'troq aholi bunday yerlarga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lib, bu yerlardan asosan chorva mollari uchun qo'shimcha ozuqa uchun foydalangan [19].

Yomg'ir kulti bilan bog'liq kuzatuvlar va qarashlar dehqonchilikda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Vodiylik dehqonlar ayrim hayvon yoki parrandalarning xatti-harakatlariga qarab ob-havoni oldindan bilishga intilganlar. Qishning chekinishi va yerga amal kelganligini dehqonlar qurbaqaning sayray boshlashi, qaldirg'ochlar uchib kelishi, mushukning yuzi va quloqlarini yuvishidan aniqlaganlar. Bundan tashqari, Zominda yomg'ir yog'ishi toshbaqaning ag'darilib qolganligi yoki qurbaqaning o'lganligidan deb ham gumon qilinadi [20]. Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida esa dehqonlar ekin maydonlarining chetlariga qurbaqalarni tutib kelib, osib qo'ygan, chunki ular qurbaqa yomg'ir chaqiradi, deb ishonganlar. Hozirda ham vodiya “qurbaqani o'ldirgan odamning to'yida yomg'ir yog'adi”, degan tushuncha saqlanib qolgan. Chunki, bunda qurbaqaning ma'lum ma'noda, namgarchilik homiysi sifatida namoyon bo'lishini ko'rish mumkin [21]. Shu o'rinda Markaziy Osiyoda qurbaqaning namgarchilik timsoli bo'lganligini mashhur arxeolog va san'atshunos olim L. I. Rempel ham tasdiqlab, “O'rta Osiyo xalqlari san'atida qurbaqa obrazidan namgarchilik va yomg'ir ifodasi, baxt va omad timsoli, tumor sifatida foydalanilgan”, deb yozgan edi [22].

Qadimgi odamlar tasavvurida suv, yomg'ir kabi tabiat ne'matlari bilan bog'liq holda muqaddaslashtirilgan afsonaviy qurbaqa obrazi asta-sekin hosildorlik hamda qut-baraka ramziga aylanib ketgan. Folklorshunos olim M. Jo'raevning yozishicha, qurbaqaning yomg'ir, suv kulti bilan bog'liqligi to'g'risidagi qarashlar o'zbek xalq og'zaki ijodi, xususan, xalq ertaklarida ham mavjud [23]. Darhaqiqat, qadimda qurbaqa obrazi ma'lum ma'noda yomg'ir, namgarchilik ramzi hisoblanib, dunyo xalqlarining aksariyatida uning yog'ingarchilik bilan bog'liqligi to'g'risida turli talqinlar uchraydi [24].

Etnolog M. So'fievning ma'lumot berishicha, Farg'ona viloyati So'x tumanida yomg'ir chaqirishga karatilgan maxsus marosim “tarishkunok” deb atalgan. Unga ko'ra, uzoq vaqt yog'ingarchilik bo'lmasa, qishloq erkaklari yarim yalang'och holda ko'chaga chiqqanlar va bir-birlarining ustidan suv quyib, biror kishi (ko'proq qishloq imomi yoki mulla)ni ariqqa tashlab yuborgan. Shu kunlari qishloq erkaklari o'zlari xohlagan xonadonga mehmonga kirgan, xonadonlarda esa ular faqat shu marosimdagina pishiriladigan taomlardan iste'mol qilganlar [25].

Yomg'ir kultiga doir qarashlar o'zbek xalqi ma'naviy madaniyatida ham o'ziga xos o'ringa ega. Jumladan, So'x tojiklarida o'zini bebaxt yoki badbaxt deb hisoblayotgan yigit-qizlarga baxti ochilishi uchun toza idishda yomg'ir suvi ichiriladi hamda ushbu odat “baxtikusho” (baxtli bo'lsin) deb ataladi. Vodiya yomg'ir yog'ayotgan vaqtda ochiq havoga chiqib o'tirish taqiqlanadi. Chunki, xalqona udumlarga ko'ra, yomg'ir suvi qut-baraka, osmondagi Tangri taolo tomonidan yuborilgan “marvarid donasi” yoki “obirahmat” sanaladi, shuning uchun uni bulg'ash gunohi azim hisoblanadi.

Yomg'ir suvini farzand ato etish maqsadida yoshlarga ichirilsa, qizlar esa sochlari ko'payishi va uzun bo'lishini istab, yomg'ir suviga sochlarini yuvganlar [26].

Antik davrda Xitoyda yomg'ir yog'diradigan tangri va yomg'irli bulut ma'budalari ilon sifatida tasavvur qilingan, shuningdek, ilon yerdagi suv havzalarining ham afsonaviy egasi hisoblangan [27]. Qadimgi dehqonlar tasavvuriga ko'ra, ilonlar yomg'ir tomchilariga qiyoslangan. Ilon zamin va osmon orasida vositachilik qila oladi, u ko'kka o'rmalab, xohlagan vaqtda yomg'ir yog'dira oladi, deb ishonilgan. U ona – Osmon ko'krigidan emib, yomg'ir yog'dirar emish [28]. Turkmanlarda esa yomg'ir piri sifatida “Qo'rqut bobo” obraziga sig'inilgan, unga bag'ishlab, turli marosimlar o'tkazilib, turli afsona va rivoyatlar keng yoyilgan [29].

Yomg'ir chaqirish marosimi. O'zbeklarning qadimdan asosiy xo'jalik mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan bo'lib, mintaqada dehqonchilik sug'orma va tabiiy, ya'ni yomg'ir suvlari bilan sug'oriladigan lalmi (qayroqi) dehqonchilik qilingan. Bunday yerlarda bahorda yomg'ir yog'masdan, qurg'oqchilik boshlansa, yomg'ir chaqirish bilan bog'liq maxsus marosim o'tkazilgan va “Sust xotin”, “Sut xotin”, “Suv xotin”, “Chala xotin” kabi nomlar bilan nomlangan [30].

“Sust xotin” marosimi O'zbekistonning Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Namangan viloyatlaridagi ayrim qishloqlarda ayollar, Sho'rchi, Koson tumanlari va o'zbek laqaylarida erkaklar ishtirokida o'tkazilgan. Bunda belgilangan vaqtda o'n o'n besh nafar ayollar maxsus yasalgan qo'g'irchoqqa keksa ayolning kiyimini kiydirganlar. Uni bir ayol ko'tarib olgan, qolganlar uning orqasidan ergashib, qishloqdagi uylarga birma-bir kirib chiqqan. Ular har qaysi xonadonga kirganda, “Sust xotin” qo'shig'ini:

Sust xotin, sulton xotin,  
Ko'lankasi maydon xotin.  
Sust xotinga ne kerak,  
Sharros-sharros yomg'ir kerak.

deb aytib, qo'g'irchoqni ustidan suv sepganlar. Xonadon egasi esa mamnuyat bilan ularga atagan narsalarini hadya etganlar [31].

Namangan viloyati Chust tumanida marosim uchun qulay bo'lgan haftaning chorshanba kuni o'tkazilgan va avvalo o'tganlar ruhiga bag'ishlab, “is” chiqarilib, cho'zma va palov pishirilgan. Marosimda yosh bolalarning ko'proq bo'lishiga harakat qilingan, chunki ular gunohsiz bo'lib, qilgan duolari yaxshi ijobat bo'lishiga ishonilgan [32]. Vodiyda toshbaqani teskari qilib qo'yilsa, yomg'ir yog'adi, degan qarash qadimdan mavjud bo'lgan [33].

Yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlar, garchi turli nomlar bilan yuritilsa-da mohiyatan, bajargan vazifasiga ko'ra, bir xildir. Masalan, Sharqiy Belarussiyada yomg'ir yog'dirishning qadimiy marosimi saqlanib qolgan. Mahalliy ayollar qattiq qurg'oqchilik paytida Oster daryosini omoch bilan haydaganlar, yomg'ir ruhini chaqirish uchun ishlatilgan qo'shiqlarni kuylaydilar. O'z o'rnida shuni qayd etish ham kerakki, ushbu marosim juda qadimiy bo'lib, o'zining chuqur butparastlik ildizlariga ega [34]. Qadimgi chechenlar e'tiqodiga ko'ra esa, qurg'oqchilikka qarshi ishonchli davo – ilondir. Yomg'ir yog'dirish uchun chechenlar ilonlarni o'ldiradilar va osib qo'yadilar. Xalq e'tiqodlarida qarg'a ham yomon ob-havo xabarchisi hisoblangan, shuning uchun yomg'ir yog'ishi uchun uning uyasini buzish kerak bo'lgan [35].

Yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlar tabiat hodisalari bilan bog'liq ruhiy olam to'g'risidagi tasavvurlar natijasi bo'lib, hozirga qadar birmuncha o'zgargan shaklda, diniy qarashlar bilan o'zaro qorishgan holda an'anaviy urf-odatlar zahirida saqlanib qolgan. Bahoriy marosimlar tarkibiga kiruvchi yomg'ir chaqirish marosimlari qadimdan chorvachilik va lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

“Sust xotin” – yomg'ir chaqirish marosimi folklorshunos B. Sarimsoqov tomonidan maxsus tadqiq qilingan [36]. Ushbu marosim asosan, tabiiy muhiti chorvachilik va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan O'zbekistonning Jizzax, Qashqadaryo hamda Surxondaryo viloyatlaridagi ayrim qishloqlarda ayollar [37], Sho'rchi, Koson tumanlari va o'zbek-laqaylarda erkaklar tomonidan o'tkazilgan [38]. Farg'ona vodiysida esa qadimdan sug'orma dehqonchilik yetakchilik qilib kelganligi bois lalmi ziroatchilik bilan faqatgina yomg'ir ko'proq yog'adigan tog'li va tog'oldi hududlarda shug'ullanilgan bo'lib, bunday yerlar vodiya juda ham oz. Shunday bo'lsa-da,

qurg'ochilik bo'lgan yillarda Farg'ona vodiysida yomg'ir chaqirish marosimlarining o'tkazilishi kuzatilgan [39].

Namangan viloyati Chust tumani Damobod qishlog'ida esa yomg'ir chaqirish marosimi uchun xonadonlardan un, yog', guruch, go'sht, sabzi, piyoz kabi mahsulotlar ehson sifatida yig'ilgan. Marosim uchun qulay bo'lgan haftaning chorshanba kuni qishloq yonidagi Sumsorsoyda to'planib, o'sha yerda yuvinib, poklanadilar. So'ngra "is" chiqarilib, cho'zma, palov kabi marosimiy taomlar pishirilgan. Marosimda yosh bolalarning ko'proq bo'lishiga harakat qilingan, chunki ular gunohsiz bo'lib, qilgan duolari yaxshi ijobat bo'lishiga ishonilgan. Marosim so'nggida soyda ikki rakaat nafl namozi o'qiladi. Yomg'ir yog'masa, marosim uch martagacha o'tkaziladi. Yaqin vaqtlargacha, ya'ni sobiq tuzum davrida ham bunday marosimlar ba'zi jamoa xo'jaliklari rahbarlari yetakchiligida o'tkazilgan [40]. Abu Rayhon Beruniy bergan ma'lumotlarga ko'ra, qaysi qishloq aholisining gunohlari ko'p bo'lsa, ular yomg'ir so'rab, marosim o'tkzalsalar ham, yomg'ir yog'mas ekan [41].

Shuningdek, ajdodlari ko'chmanchi bo'lgan qipchoq va turklarda "yada" toshi vositasida yomg'ir chaqirish bilan bog'liq qarashlar saqlanib qolgan. Qadimgi turkiylarda "yada" toshi yordamida yomg'ir chaqirish marosimlari bo'lgan, lekin axborotchilardan birortasi ushbu marosimni o'z ko'zlari bilan ko'rmaganlar, faqat ota-bobolaridan eshitganlar. Darhaqiqat, yada toshi vositasida yomg'ir chaqirish qadimgi turkiylarda keng tarqalganligi ko'plab adabiyot va manbalarda qayd etilgan [42]. Afsuski, yada toshi bilan bog'liq qarashlar Farg'ona vodiysi o'zbeklarining xotiralariidagina saqlanib qolgan [43].

Vodiyda olib borilgan tadqiqotlar davomida ho'kiz kultining suv bilan bog'liq an'analarga ham duch kelindi. Jumladan, Andijonda agar qurg'ochilik bo'lib, yomg'ir yog'masa, mozorda mol so'yib, qurbonlik qilingan yoki XX asrning 70- yillariga qadar Sirdaryo suvi toshgan vaqtda daryoga bag'ishlab, turli hayvonlar (ho'kiz, qo'y, qo'chqor) qurbonlik qilingan [44]. Suvga qurbonlik keltirish bilan bog'liq odatlar dunyoning boshqa xalqlarida ham mavjud.

Umuman olganda, yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlar tabiat hodisalari bilan bog'liq ruhiy olam to'g'risidagi tasavvurlar natijasi bo'lib, hozirga qadar birmuncha o'zgargan shaklda, islomiy qarashlar bilan o'zaro qorishgan holda an'anaviy urf-odatlar zamirida saqlanib kelmoqda.

Farg'ona vodiysi aholisi orasida yomg'ir chaqirish bilan bir qatorda uni to'xtatishga doir qarashlar ham saqlanib qolgan. Bunday odatlar sirasiga qozonni teskari qilib qo'yish, suv idishini ag'darish va Qur'oni Karim o'qish kabilar ham kiradi. Masalan, qozonni teskari qilib qo'yishdan maqsad, yomg'ir juda ko'p yoqqan paytda, bunday odat yomg'irni "to'xtatadi" degan ishonch kuchli ekanligidir. Yomg'irni kamaytirish uchun esa hovlidagi suv to'ldirilgan idishlar ag'darib qo'yilgan. Yomg'ir juda kuchli bo'lganda, suv toshqinidan saqlanish niyatida Qur'on tilovat qilinib, turli xil duolar o'qilgan [45].

Bundan tashqari, o'zbeklar orasida yomg'ir timsoli bilan bog'liq bir qator tabular hozir ham saqlanib qolmoqda. Masalan, yomg'ir so'rayotgan paytda kulmaslik – bu osmonga hurmatsizlik deb qaralsa, bunday marosim paytida qora kiyim kiyimaslik kerak. Chunki, qora rangga qadimdan "qurg'ochilik" ramzi deb qaralgan. Marosim vaqtida hayvonlarga zulm qilish esa yomg'irning "barakasini qaytaradi", degan ishonch ham vodiy aholisi orasida hozir saqlanib qolgan [46].

**Xulosa** sifatida shuni qayd etish kerakki, yomg'ir kulti insoniyat tarixida dehqonchilik va suv resurslariga bog'liq hayot tarzining tabiiy mahsuli bo'lib, u deyarli barcha qit'alarda turli shakllarda uchraydi. Shuning uchun har bir mintaqa o'zining madaniy, diniy va geografik sharoitiga moslab, ushbu kultni shakllantirgan hamda rivojlantirgan. Bugungi kunda uning ko'plab elementlari folklor, diniy marosim va bayramlarda saqlanib qolgan bo'lsa-da, ba'zi chekka hududlarda u hanuzgacha faol amaliyot sifatida asrab-avaylab kelinmoqda.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-yo/yomgir-uz>.
2. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani Xonobod qishlog'i. 2025- yil.

3. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor va Boybuchcha qishloqlari. 2024-yil.
4. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Adabiyot, 2022. – Б. 74.
5. Yuqoridagi asar... – В. 73.
6. Дугаров Б. С. Тэнгритская мифология: пантеон божеств и эпическая интерпретация / MONGOLICA-XIV. Сборник научных статей по монголоведению посвящается 130-летию монголоведа, публициста, дипломата, академика АН СССР Ивана Михайловича Майского (1884 – 1975). – Санкт-Петербург, 2015. – С. 49.
7. Тернер В. Символ и ритуал. – М., 1982. – С. 36.
8. Халмуратов Б. Р. Farg'ona водийси ўзбекларининг анъанавий турмуш тарзи ва маросимлар тизимида рамзий атрибутлар (Шомонлик эътиқоди материаллари асосида) // ЎзМУ хабарлари. – 2011. – №1. – Б. 156.
9. Куръони Карим. “Ҳаж” сураси, 5-оят.
10. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Куръон ва суннатдаги илмий мўъжизалар.
11. Куръони Карим. “Бақара” сураси, 22-оят.
12. Куръони Каримнинг изоҳли таржимаси. – Тошкент, 2004. – Б. 324. <sup>1</sup>
13. Абу Довуд ва Насафий ривояти.
14. Абу Довуд ва Муслим ривояти.
15. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To'raqo'rg'on shahri. 2025 yil.
16. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani Chodak qishlog'i. 2025- yil.
17. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani Qo'shtepa qishlog'i. 2024- yil.
18. Усмонов М. Ш. Жанубий Ўзбекистон кўнғиротлари (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи ярми, тарихий-этнологик таҳлил). Тарих фан. бўй. фалс. докт (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 119.
19. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 15.
20. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Zomin tumani Kultepa qishlog'i. 2025- yil.
21. Аширов А. А. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 61.
22. Ремпель Л. И. Цепь времен: вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Ташкент, 1987. – С. 37.
23. Жўраев М. Ўзбек халқи самовий афсоналари. – Тошкент, 1995. – Б. 226.
24. Евсюков В. В. Мифология китайского неолита. – Новосибирск, 1989. – С. 94–95; Халилов Х. М. Историческая общность и национальное своеобразие обрядовой поэзии народов Дагестана и Северного Кавказа / Дагестанский фольклор во взаимосвязи с иноэтническим фольклором. – Махачкала, 1985. – С. 19; Календарные обычаи и обряды народов восточной Азии. Годовой цикл. – М., 1988. – С. 276.
25. Сўфиев Ў. М. Сўх тожикларининг сув култи билан боғлиқ урф-одатлари / Farg'ona водийси тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Farg'ona, 2014. – Б. 120.
26. O'sha joyda.
27. Файзиева Д. Ўзбек фольклорида илон образи. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 15.
28. Андрианов Б. В. Земледелие наших предков. – Москва: Наука, 1979. – С. 66.
29. Басилов В. О туркменском “пире” дождя Буркут-Баба // Советская этнография. – 1963. – №5. – С. 15 – 18.
30. Жалилов И. “Суст хотин” – ёмғир чақириш маросими // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – 2010. – №2. – Б. 94.
31. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Zomin tumani Achchi qishlog'i. 2023- yil.
32. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani Kaklikqo'rg'on qishlog'i. 2025- yil.
33. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Ing'irchoq qishlog'i. 2024- yil.
34. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
35. O'sha joyda.

36. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 109.
37. Yuqoridagi asar... – Б. 121.
38. Шаниязов К. Ш. К этнической истории уйбекского народа. – Ташкент, 1964. – С. 52.
39. Саримсоқов А. А. Ўзбекларнинг тақвимий маросимлари (Farg'ona vodiysi материаллари асосида). Тарих фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 70.
40. Yuqoridagi asar... – Б. 70.
41. Беруний А. Р. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асаглар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 268.
42. Абрамзон С. А. Этнографические исследования С. Е. Малова / Тюркологический сборник. – М., 1978 . – С. 18; Агаджанов С. А. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII вв. – Ашхабад, 1969. – С. 122; Бартольд В. В. Сочинения. Т. 8. – М., 1973. – С. 41 – 42; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, 1969. – Б. 98; Гумилев Л. Н. Қадимги турклар. – Тошкент, 2007. – Б. 94 – 95; Жўраев М. “Яда тошига қон етгач” // Ёшлик. – 1990. – №1. – Б. 60 – 62; Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент, 1963. 3. ж. – Б. 8.
43. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'qon va Namangan viloyati To'raqo'rg'on shaharlari. 2024- yil.
44. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani Xidirsha qishlog'i. 2023- yil.
45. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'qon, Rishton va Namangan viloyati To'raqo'rg'on shaharlari. 2024- yil.
46. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani To'da qishlog'i. 2025- yil.

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000